


Farg'ona viloyatida tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyul oylarida 852,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 325,5 mln. AQSh dollarini va import 527,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi minus 201,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

## Eksport tarkibi, foizda




Viloyatda eksport tarkibida energiya manbalari va neft mahsulotlari exporti 1,5 martaga, mashina va uskunalar eksporti 1,7 martaga, hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi

1,7 martaga ko’paygan bo’lsa, xizmat eksporti hajmi o’tgan yilning mos davriga nisbatar 0,8 foizga o’sgan.

## Tashqi savdo

Import tarkibida asosiy ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (umumiy import hajmida 41,6 %), mashina va asbob–uskunalar (23,3 %) hisobiga tog’ri kelmoqda.

### Import tarkibi, foizda




2018 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi -201,8 mln. AQSh dollarni tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan -130,2 mln. AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan - 71,6 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma’lumotlarda tavsiflanadi:

| | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan foizda | umumiy hajmga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|
| **Eksport** | **325,5** | **109,0** | **100** |
| paxta tolasi | 1,0 | 8,3 | 0,3 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 126,8 | 1,7 m | 39,0 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 1,9 | 5,5 | 0,6 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 13,6 | 1,5 m | 4,2 |
| qora va rangli metallar | 0,02 | 39,9 | 0,01 |
| mashina va asbob-uskunalar | 0,5 | 1,7 m | 0,2 |
| xizmatlar | 3,8 | 100,8 | 1,2 |
| boshqalar | 177,8 | 109,4 | 54,6 |
| | | | |
| **Import** | **527,3** | **2,3 m** | **100** |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 25,1 | 1,4 m | 4,76 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 38,4 | 116,1 | 7,28 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 219,2 | 4,0 m | 41,57 |
| qora va rangli metallar | 51,5 | 3,8 m | 9,77 |
| mashina va asbob-uskunalar | 122,6 | 2,0 m | 23,26 |
| xizmatlar | 3,5 | 116,2 | 0,66 |
| boshqalar | 67,0 | 1,6 m | 12,7 |

## 2018 yil yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda




MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston, Qirg`iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,0 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Hindiston, Germaniya va Polsha mamlakatlari hisoblanadi va ularning ulushi 34,4 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

**Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar,**

Eksport




Import




# Tashqi savdo



Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 125,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o`tgan yilning shu davriga nisbatan 68,4 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 84,4 foizni meva va rezavorlar (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paygan), 11,0 foizni sabzavotlar (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 24,0 foizga kamaygan), 3,9 foizni uzum (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 foizga o'sgan ) tashkil qiladi.

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 52,2 foiz), Qirg'iziston (24,8 foiz), Rossiya (18,4 foiz), Afg'oniston (2,1 foiz), Ukraina (0,6 foiz), hisoblanadi.

# Tashqi savdo

## Meva - sabzavot mahsulotlari eksporti

Meva - sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmi 97,2 ming tonnani tashkil qildi, yoki o`tgan yilning shu davriga nisbatan 13,3 %ga oshdi. Jami meva - sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmida 61,9 ming tonnani meva va rezavorlar (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 32,0 % ga o`sdi), 30,6 ming tonnani sabzavotlar (2,0 % ga kamaygan), 3,0 ming tonnani uzum (54,9 % ga kamaydi), 1,1 ming tonnani yer yong'oq (2,0 martaga ko'paygan), 0,6 ming tonnani yangi uzilgan qovun va tarvuz (19,9 %ga kamaydi) tashkil qildi.




2018 yil yanvar - iyunl oylari yakuni bo'yicha meva - sabzavot mahsulotlari eksporti xajmi umumiy eksport xajmida 38,4 %ni tashkil qiladi.




**Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi**
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi

**Nashr uchun mas`ul: J.Artikov**
*(0371) 230-87-35*